



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MA'NAVY-AXLOQIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA NAVRO`Z BAYRAMINING O`RNI

Abdurashidov Adxamjon

Qo`qon davlat universiteti

Maktabgacha ta`lim kafedrası v.b. professori

Email: adxamabdurashidov@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada Navro`z bayramining milliy qadriyat sifatida nishonlanishi, maktabgacha ta`limda o`tkaziladigan bayram tadbirining ssenariysi va tadbir o`rali bolalarda shakllantirilishi lozim bo`lgan ma`naviy-axloqiy kompetensiyalarning mazmuni aks ettirilgan.

Kalit so`zlar: milliy qadriyat, ma`naviy-axloqiy kompetetsiya, o`zbekona ruh, estetik qadriyat, ma`naviy barkamollik

Аннотация: в данной статье рассматривается празднование Навруза как национальной ценности, сценарий проведения праздничного мероприятия в дошкольном образовании, а также содержание духовно-нравственных компетенций, которые должны формироваться у детей во время этого мероприятия.

Ключевые слова: национальная ценность, духовно-нравственная компетенция, узбекский дух, эстетическая ценность, духовное совершенство

Abstract: This article examines the celebration of Navruz as a national value, the scenario for holding a festive event in preschool education, and the content of spiritual and moral competencies that should be developed in children during this event.

Key words: national value, spiritual and moral competencies, Uzbek spirit, aesthetic value, spiritual perfection

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma`naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda milliy qadriyatlar o`z mazmuni bilan alohida o`rin tutadi. Milliy qadriyatlar – har bir millatning ma`naviy qiyofasi va milliy madaniyatini aks ettiruvchi, millat ruhiyatini singdiruvchi mentalitet me`yorlaridir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma`naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda xalqimizning ming asrlik o`tmishi, qadriyatlari haqiqiy o`zbekona ruhni singdirish asosiy omillardan biri bo`lib hisoblanadi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta`biri bilan aytganda, “Bolalarimizni go`dakligidan ongi va tafakkurini to`g`ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviyali, bilim va ma`naviyatga ega bo`lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin kechadi”.

1991-yildan keyin Navro‘z umumxalq bayrami darajasiga ko‘tarilgan va har yili bayram katta tayyorgarlik bilan nishonlanadi. O‘zbekiston prezidenti har yili xalqni Navro‘z bilan rasman tabriklaydi.

Navro‘z bayrami madaniyatning bir qismi sifatida madaniy birdamlikni kuchaytiradi. Bayramni nishonlash chog‘ida hunarmandlar xalq madaniyatining keng yo‘nalishlarini va mahalliy, milliy va hududiy madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi va tarqatuvchi bo‘g‘in hisoblanadi. Navro‘z bayrami minosabatlari bilan bog‘liq xalq an‘analari mavjud. Masalan, 21 mart Navro‘z kunlari tug‘ilgan qiz bolalarga Navro‘za, o‘g‘il bolalarga Navro‘zali deb ismlar qo‘yiladi. Doshqozonlarda sumalaklar, halimlar qaynatilib, xalqqa tarqatiladi. Darveshona marosimi qishloq, shahar mahallarida tashkil etiladi va [Navro‘z](#) kunlarida nishonlanadigan [xalq sayli](#)dir. Ming yillardan beri xalq orasida mazkur nom bilan ataladigan bu tantana Navro‘z sayillari bilan uzviy bog‘liqdir [1]. Bundan tashqari, dor o‘yinlari, xalq sayllari tashkil etilib, milliy o‘yinlar o‘ynaladi. Qarilar, betoblar, kamxarj xonadonlar yo‘qanadi. Shunday qilib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatdir odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Xalqning unitilmas qadriyatlari o‘tmishni bugun bilan bugunni kelajak bilan bog‘laydigan ma‘naviy zanjir bo‘lib, xalq o‘rtasida insoniylik, mehr-oqibat uyg‘otib, milliy o‘zligimizni unutmashlikda undaydigan ma‘naviy merosdir.

Xalqning ma‘naviy merosi bo‘lgan Navro‘z bayrami maktabgacha yoshdagi bolalarning ma‘naviy-axloqiy kompetentsiyalarini shakllantirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Chunki yuqorida qayd etilgan ma‘naviy-axloqiy sifatlarni aynan shu yoshdan shakllantirish ijtimoiy ahamiyatga egadir va bu borada maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bir qator imkoniyatlarga ega. Xususan ta‘limiy faoliyatlar, o‘yin jarayonlari, sayr, mehnat, musiq faoliyatlari va ayniqsa bayramona tadbirlardagi bolalar ishtiroki ayni mudaodir. Quyida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida Navro‘z bayramiga atalgan tadbir ssenariysining namuna tarzda keltiramiz:

Tadbir nomi: *Navro‘z – bahor bayrami*

Tadbirning maqsadi: *bolalarning Navro‘z bayrami haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularda axloqiy fazilatlarni mustahkamlash, madaniy-ma‘naviy zavq olish, estetik ruxni tarbiyalash orqali ularga ko‘tarinki kayfiyatni baxsh etish*

Zaruriy jixozlar: *kalonka, mikrafon, qo‘shiq kuylarning elektron yozuvlari, shiorlar yozilgan panolar, tabiiy va sun‘iy gular.*

Tadbir ishtirokchilari: *maktabgacha ta‘lim tashkilotining, o‘rta guruh bolalari*

Tadbirning borishi: *Zal bayrami bezatilgan. “Chamanda gul” (o‘zbek xalq musiqasi) kuyi yangraydi. Zalga quv nab guruxning o‘g‘il va qizlari kirib keladilar.*

Boshlovchi:

Maysa boshin ko‘tardi yerdan,
Gulbahordan bermoqda darak.
Qushlar qo‘shiq, soz kuyi bilan
Gulbahordan bermoqda darak.

(M.Abdusamatova)

Assalomu alaykum, shirin-shakar o‘g‘il-qizlarim! Atrofga bir nazar tashlang. Qanday chiroyli! Tabiat yashil libosga o‘rangan. Yilning eng chiroyli faslida qir-adirlarda

chuchmoma, boychechak, lolaqizg’aldoqlar ochilgan. O’lkamizda bahor kezmoqda. Bu faslda qanday bayramni nishonlaymiz?

Bolalalar: - Navro’z bayramini nishonlaymiz.

Boshlovchi: - Juda to’g’ri, Navro’zni har yili zo’r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo’lib qolgan. Qo’shiqlar aytib, raqsga tushganlar. Xursandchilik qilganlar.

Karnay-surnay sadosi yangraydi. Beqasam chopon kiyib, beliga qiyiqcha bog’lagan, oyog’iga etikcha kiygan bola ot (butaforiya) minib zalga kiradi.

Bola: - Ho-oy, bolalaru, bolalar!

Eshitmadim demanglar! Bugun bog’chamizda Navro’z bayramiga bag’ishlangan katta sayl bo’ladi. Hammangizni saylga taklif etamiz. (*Jarchi chiqib ketadi*).

Boshlovchi: - Voy, qanday yaxshi bolalar. Mana, biz ham saylda qatnashadigan bo’ldik. Endi navbat, sizlarga. Marhamat bolalar!

Bola: - Biz bahorda chiqamiz,

Dalalarga, bog’larga.

Gullolalar ochilgan,

Ko’m-ko’k maysazorga.

Bola: - Qo’llarida soz bilan,

Gul-g’uncha pardoz bilan.

Uchib turna g’oz bilan,

O’lkamga bahor keldi.

Bola: - Dalalarda ochildi,

Gunafshalar, lolalar.

Bizga uchib kelishdi.

Mayna, bulbul, sa’valar.

Bola: - Bahorni kuting bog’da,

Bog’ emas dala joyda.

Qushlar sayralar chog’da,

Sevimli bahor keldi.

Bolalar “Gullar” qo’shig’ini kuylaydilar. (J.Najmiddinov musiqasi). Qizlar qo’lda gullar bilan raqsga tushadilar.

Boshlovchi: - Raxmat qizlar, juda chiroyli raqsga tushdingiz.

Bola: - Bahor keldi, gulbahor,

Etagida gul tutib.

Bizga intiq lolazor,

Qirlar bag’rida kutib.

Bola: - Binafshaxon, binafsha,

Kulishlaring chiroyli.

Bog’imizda ochilib,

Turishlaring chiroyli.

Bolalar tarafma-taraf bo’lib, “Bizdan sizga kim kerak?” aytim-o’yinini aytishuv tarzida kuylaydilar. (Ya.Qurbonov she’ri, M.Nasimov musiqasi).

Shu payt momaqaldiroq gumburlaydi.

Boshlovchi: - bolajonlar, eshitmayapsizmi, momaqaldiroq gumbirlayapti. Hozir yomg’ir quyadi. Tezroq panaga o’tamiz.

“Yomg’ir-yog’aloq” o’zbek xalq bolalar qo’shig’ini kuylaydilar.

Boshlovchi: - Mana, bolalar yomg’ir ham yog’ib o’tdi. Qarang, quyosh charaqlab chiqdi. Voy, eshik taqillayapti. Qaraychi kim ekan?

(Kamalak qizchani boshlab kiradi).

Bolajonlar, Kamalakoy mehmon bo’lib kelibdi. Kiraver, Kamalakoy!

Kamalak: - Assalomu alaykum, bolalar!

Hamma: - Vaalaykum assalom, Kamalakoy!

Boshlovchi: - Kelganing juda yaxshi bo’ldi-da, Kamalakoy. Bizning bog’chamizda Navro’z bayrami sayli bo’layapti. Bolalar, Kamalakning ko’ylagiga qaranglar juda rang-barang ekan-a?

Bolalar: - Oq, qizil, sariq, yashil ... Lentasi ham turli rangda ekan.

Kamalak: - Sizlarni, Navro’z – bahor bayrami bilan tabriklayman! Sizlarga gulchambarlar, tol bargidan sochbargaklar keltirdim, mana taqib olinglar.

Bolalar boshlariga gulchambarlar, sochbargaklarni taqadilar. Kamalak bilan birgalikda qo’shiq kuylaydilar, o’rtada ikkita qizi raqsga tushadi.

“Qo’shig’imiz avjida” aytim-o’yinini ijro etadilar. (G’.Komilov she’ri, T.Azimov musiqasi).

Qo’shig’imiz avjida,
Laylum-lalalum.
O’rtaga tush Mavjuda,

Laylum-lalalum.
Bizlarga jo’r bo’linglar,
Laylum-lalalum.

She’r: “Chuchmoma”

Bola:

- Xipcha belli ey, ko’kat,
Qaysi bog’ning gulisan?
Ochig’ini bizga ayt,
Qay fasl sunbulisan?

Men o’tloqning qiziman,
Onam bahor-chuchmoma.
Men bahor yulduziman,
Men – chuchmoma, chuchmoma!

“Baxtli erkato’y” xazil qo’shig’ini kuyladilar. (T.Toshmatov musiqasi).

Boshlovchi: - Bolalar, endi musobaqa o’ynaymiz. Avval qizlar, so’ngra o’g’il bolalar musiqaga mos raqsga tushadilar. Marhamat qizlar!

Kamalak: - Qizlar ham, o’g’il bolalar ham musiqaga mos raqsga tushdilar. Rahmat, do’stlarim. Endi men boray.

Shu payt patnisda ko’k somsolar ko’tarib, “Cho’pon bola” kiradi.

Cho’pon bola: - Assalomu alaykum!

Hamma: - Assalomu alaykum!

Cho’pon bola: - Meni tanimadingizlar-a? Men cho’pon bola bo’laman! Dadam, oyim vaakalarim bilan anavi qirda yashaymiz, o’sha yerda qo’y boqamiz. Uzoqdan sizlarni saylga chiqqanligingizni ko’rib qoldik. Oyimlar ko’k somsalar yopib, sumalak pishirib, sizlarga berib yubordilar.

Boshlovchi: - Cho’pon bola, sen juda vaqtida kelding-da. Mana, Kamalak ham shu yerda.

Cho’pon bola: - Juda yaxshi. Hammamiz birgalikda ko’k somsa yeymiz. “Chamangul gul” kuyi yangraydi. Hammalari gilamchaga o’tirib, ko’k somsa va sumalakdan tanovul qiladilar.

Kamalak: - Bolalar, sizlarga katta rahmat. Sayl menga juda yoqdi. Endi har yili Navro’z bayramini sizlar bilan birga nishonlayman. Xayr bolalar!

Cho’pon bola ham xayrlashib chiqib ketadi.

Hamma: - Xayr Kamalak, xayr Cho’pon bola!

Tadbir yakunida bolalar uchtadan, to’rttadan, to’p-to’p bo’lib, qizlarning boshlarida gulchambar, sochbargak quvnashib, sayl haqida gaplashib chiqib ketadilar.[2]

Tadbir natijalari:

Navro’z tadbirlarini o’tkazish orqali yosh avlod:

- sharqona tarbiya asosida ma’naviy barkamol bo’lib ulg’ayadi;
- vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzat tuyg’ulari shakllanadi;
- xalq o’yinlari, qo’shiq va sh’erlar vositasida yaxshilik, to’g’riso’zlik, mehnatsevarlik kabi sifatlar bolalar xulq-atvoriga singdiriladi;

- milliy urf-odatlar va an’analar orqali o‘z xalqining tarixi va madaniyatini anglay boshlaydilar.

- maktabgacha yoshli bolalarda estetik qadriyatlar va milliy madaniyatga muhabbat shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida milliy qadriyatlarni singdirish bolalarning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirishning eng samarali vositasidir. Shuning uchun ham, 2009-yil 30-sentyabrda Navro‘z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart Xalqaro Navro‘z Kuni deb e’lon qilindi. Hali ham bu bayram xalqlar o‘rtasida keng ko‘lamda davom etib kelmoqda [3]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. E.Begmatov,A.Madvaliyev,N.Mahkamov,T.Mirzayev(rahbar)N.To'xliyev,E.U marov,D.Xudoyberganova, A.Xojiyev. *O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi* davlat ilmiy nashriyoti — 560-bet.

2. <https://bilimmarkazi.uz/tadbir-ssenariysi/>

3. [Navro‘z tarixi www.kamolot.uzda](http://www.kamolot.uzda)